

Tadbirkorlik subyektlaridagi elektr energiyasini hisobga olish elektron asboblarini sotib olish, o'rnatish, ro'yxatga olish, davriy davlat qiyoslovidan o'tkazish va plombalash, shuningdek, mavjud (jumladan, induksion) hisobga olish asboblari ilk marotaba (birinchi marotaba) hududiy elektr tarmoqlari korxonasi mablag'lari hisobidan almashtiriladi.

Hisobga olish iste'molchining aybi bilan buzilgan taqdirda (tok va kuchlanishni o'lhash transformatorlarining ishdan chiqishi, shuningdek, ikkilamchi kommutasiya, hisobga olish asboblarining shikastlanishi va ularning yo'qolishi) hisobga olish nazorat qilish asboblarini va ularga tegishli asbob-uskunalarni almashtirish, ta'mirlash, davlat qiyoslovidan o'tkazish va o'rnatish iste'molchi tomonidan ular qiymati va ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'langan holda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan amalga oshiriladi.

### III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Elektr energiyasi uchun hisob-kitoblar bir stavkali, tabaqalashtirilgan yoki aholiga tenglashtirilgan tariflar asosida amalga oshiriladi.

3.2. Ulangan quvvati 750 kVA va undan ortiq bo'lgan "Iste'molchi" (byudjet tashkilotlari, suv ta'minoti tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilari uyushmalarining nasos stansiyalari, shuningdek Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan nasos stansiyalari bundan mustasno) elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha amalga oshiradi.

Iste'mol qilingan energiya uchun tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitoblar:

yarim tig'iz davr – sutkaning yorug' vaqtida (soat 9<sup>00</sup> dan 17<sup>00</sup> gacha) – belgilangan tarif bo'yicha,

tig'iz davr – eng katta yuklamali soatlarda (yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlari: ertalabki eng katta miqdor soat 6<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha, kechki eng katta miqdor soat 17<sup>00</sup> dan 22<sup>00</sup> gacha) belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda o'suvchi koeffisiyentni qo'llash orqali;

tungi davr – sutkaning qorong'i vaqtida (eng kam yuklamali soatlarda: 22<sup>00</sup> dan 24<sup>00</sup> gacha va 00<sup>00</sup> dan 6<sup>00</sup> gacha) – belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar kamayuvchi koeffisiyentni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Belgilangan tarif II-tarif guruhi bir stavkali iste'molchilarga qo'llaniladigan tarifga to'g'ri keladi.

Tabaqalashtirilgan tarif qo'llanilmaydigan iste'molchiga nisbatan energiya uchun hisob-kitoblarda bir stavkali tarif qo'llaniladi.

Reaktiv energiya kompensasiyasi uchun chegirmalar (ustamalar) reaktiv energiyani hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi hamda tegishli ravishda iste'mol qilingan (hosil qilgan) reaktiv energyaning 1 kVar soat uchun to'lov tarzida undiriladi.

Reaktiv energyaning shartnomaviy miqdori reaktiv energyaning iqtisodiy qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Reaktiv energyaning har bir hisobot davri uchun iqtisodiy qiymati, shartnomada ko'rsatilgan va o'rnatilgan tartibda aniqlanadigan quvvat koeffisiyentining optimal miqdori hisobga olinib, ushbu davr uchun aktiv energyaning shartnomadagi miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ulangan quvvatidan qat'iy nazar, kripto-aktiv va mayning sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi iste'molchilar (turli kriptovalyutalarda yangi birliklar va komissiya yig'implari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta'minlash va yangi bloklar yaratish bo'yicha faoliyat) foydalangan elektr energiyasi uchun to'lovlarini tegishli tarif guruhibiga asosan belgilangan tarifga nisbatan 3 barobar o'suvchi koeffisiyentga muvofiq to'laydi.

3.3. Bir necha tarif guruhlariiga mansub iste'molchi bilan hisob-kitoblar, har bir tarif guruhiga alohida o'rnatilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.